



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

**Markaz kengashining 2025-yil 6-maydagi 2-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga
yo'naltirish to'g'risida**

Markaz kengashining 2025-yil 6-maydagi 2-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga
yo'naltirish maqsadida buyuraman:

1. Markaz kengashining 2025-yil 6-maydagi 2-sonli qarori ijro uchun qabul
qilinsin.
2. Markaz kengashi qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va
sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun
muddatda Kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni
umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Kengash kotibi (D.Yunusova)ga
yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A.Ibragimov

Samarqand sh.
8 may 2025 yil.
43-son

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/3-son

Samarqand shahri

**Professor-o'qituvchilar tomonidan tegishli
yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan
fan dasturlari, o'quv-uslubiy materiallarning
davlat talablari asosida tayyorlanganligini,
o'quv-uslubiy materiallarning ehtiyojga
asoslanganligi, zamonaviy talablar asosida
ishlab chiqilganligini, Davlat talablariga
mosligi tahlili to'g'risida**

Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Professor-o'qituvchilar tomonidan tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan fan dasturlari, o'quv-uslubiy materiallarning davlat talablari asosida tayyorlanganligini, o'quv-uslubiy materiallarning ehtiyojga asoslanganligi, zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilganligini, Davlat talablariga mosligi tahlili to'g'risida"gi ma'lumoti eshildi.

Ushbu masala yuzasidan Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov so'zga chiqdi: – Markaz professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan o'quv dasturlari hamda professor-o'qituvchilar dars jarayonlarining xulosaviy tahlili yuzasidan quyidagi ma'lumotlarni berib o'tmoqchiman.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-dekabrda "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 402-sonli buyrug'idagi tegishli ilovalarga muvofiq Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan O'quv dastur, majmualar, matn, tarqatma materiallar va taqdimotlar hududiy markazlarga taqdim etigan hamda ushbu o'quv uslubiy materiallar asosida dars jarayonlari tashkil qilib kelinmoqda. Shuningdek, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan mazkur materiallarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, ehtiyojlarga asoslanildi va zamonaviy talablar asosida qayta ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tegishli yo'nalishlarning o'quv uslubiy materiallari A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan taqdim etilmagan (dasturlar bundan istisno). Ular quyidagilar:

- Maktab amaliyotchi psixologlari (O'UM)
- Boshlang'ich ta'lim uchunchi blok va rus tili hamda tojik tili guruhleri (O'UM)
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari (O'UM)
- Tojik tili o'qituvchilari (O'UM)

Ushbu yo'nalishlar uchun Markaz professor-o'qituvchilari tomonidan barcha o'quv me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Tahlil jarayonlari mazkur hujjatlarning zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilganligini izohlaydi.

Maktab amaliyotchi psixologlar kursi uchun tasdiqlangan reja dastur asosida quyidagi mavzular belgilab berilgan va tasdiqlangan:

I. Umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonining psixologik-pedagogik ta'minoti;

II. Ta'lim muhiti qulayligi va xavfsizligining psixologik ekspertizasi (baholash);

III. Ta'lim oluvchilarni psixologik-pedagogik tashxisi va kasbga yo'naltirishga zamonaviy yondashuvlar.

Yuqorida keltirilgan modular mavzulari bo'yicha K.Okilova Sh.Mamarasulova, Sh.Aliyevlar materiallar to'plab, kerakli ma'lumotlar bilan boyitishgan va dars jarayonida foydalanib kelmoqda.

Maktabgacha, boshlang'ich ta'lim va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'quv yuklamasida o'zbek guruhlarida jami 12 ta modul kiritilgan. Ushbu modullarning barchasida O'UMLar va didaktik materiallar mavjud bo'lib ularning mazmuni sifat jihatdan o'rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Oliy va birinchi malaka toifali o'qituvchilar uchun tayyorlangan modullar:

3.3. Ona tili va o'qish savodxonligi darslariga zamonaviy yondashuvlar;

3.4. Matematika fani va mantiqiy fikrlash;

3.7. Tanlov moduli.

Ikkinchi toifali va mutaxassis o'qituvchilar uchun tayyorlangan modullar:

3.3. O'qish savodxonligi va ona tili darslarida XXI asr ko'nikmalari hamda kompetensiyalarni rivojlantirish;

3.8. Tanlov moduli.

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan o'quv dasturi berilgan va kafedra professor o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan modullarning ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulot ishlanmalari, texnologik xaritalari, tarqatma materiallari, taqdimotlari mavjud va o'quv dasturidagi talablarga mos keladi. Mazkur materiallar boshlang'ich ta'lim sohasidagi yangiliklar bilan boyitib borilmoqda. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi rus va tojik guruhlar uchun O'UMLar kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari yo'nalishi uchun kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan quyidagi modullar bo'yicha O'UMLarning ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulot ishlanmalari, texnologik xaritalari, tarqatma materiallari, taqdimotlari tayyorlangan.

II. Umumkasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish modulidan:

2.1. Davlat ta'lim talablari va ilk qadaml davlat o'quv dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish;

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi;

2.3. Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish;

2.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish.

III. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar modulidan:

3.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

3.2. Musiqa mashg'ulotlarida bolalarning ijodkorligini rivojlantirish;

3.3. Maktabgacha ta'limda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish;

3.4. San'at, qurish, konstruksiyalash va matematikal markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etish;

3.5. Fan va tabiat, Til va nutq, Sujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etish;

3.6. Kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish;

3.7. Tanlov moduli.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari yo'nalishi uchun:

II. Umumkasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish:

2.1. Davlat ta'lim talablari va ilk qadaml davlat o'quv dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish;

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi;

2.3. Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish;

2.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish.

III. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar:

3.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

3.2. Musiqa mashg'ulotlarida bolalarning ijodkorligini rivojlantirish;

3.3. Maktabgacha ta'limda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish;

3.4. San'at, qurish, konstruksiyalash va matematikal markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etish;

3.5. Fan va tabiat, til va nutq, sujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etish;

3.6. Kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish;

3.7. Tanlov moduli.

Markaz kafedra professor-o'qituvchilarining darslari doimiy tahlil qilib borilmoqda. Shu kunga qadar Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi, Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedra professor-o'qituvchilarining dars jarayonlari offline va online shaklda tahlil qilindi. Tahlil jarayonlari darsni tashkil etishdandan tortib, o'qituvchi imiji, o'quv me'yoriy materiallar, mavzu mohiyati, samarasi, natijasi, va yakuniy xulosasigacha to'liq jarayonni qamrab olgan.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Professor-o'qituvchilar tomonidan tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan fan dasturlari, o'quv-uslubiy materiallarning davlat talablari asosida tayyorlanganligini, o'quv-uslubiy materiallarning ehtiyojga asoslanganligi, zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilganligini, Davlat talablariga mosligi tahlili to'g'risida" axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan o'quv dastur, ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar va taqdimotlarning muvofiqligi inobatga olinsin.

3. Markaz kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan mazkur dastur asosida ishlab chiqilgan materiallarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi,

ehtiyojlarga asoslanilganligi va zamonaviy talablar asosida qayta ishlab chiqilganligiga e'tibor qaratilsin.

4. Har oyda ma'ruzalar matni, taqdimotlar, tarqatma materiallar tarkibiga qo'shimcha ma'lumotlar kiritilib takomillashtirilsin.

5. Markaz kafedra professor-o'qituvchilarining darslarni tashkil etish jarayonlariga e'tibor qaratilsin va doimiy ravishda dars jarayonlari oflayn va onlayn shaklda tahlil qilinsin.

6. Mazkur qaror ijrosi Pedagogik markaz akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi
Kengash kotibi



A.Ibragimov
D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/2 -son
Samarqand shahri

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda
Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida
belgilangan ustuvor vazifalarni Aniq va tabiiy
fanlar metodikasi kafedrasida bajarilishi holati
to'g'risida**

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri, Ishchi guruh raisi G.Fayzullayevaning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida bajarilishi holati to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri, Ishchi guruh raisi G.Fayzullayeva so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy rivojlantirishning zamonaviy turlari va shakllarini keng joriy etish maqsadida kafedrada xalq ta'limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, **2024-yilda 7-ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan** (T.Oqnazarov, Sh.Abduyev, V.Turapov, Sh.Xujakulov va D.Xabibulloyevlar tomonidan markazning professor-o'qituvchilariga "Ta'limda sun'iy intellektga asoslangan dasturlar va bulutli texnologiyalardan samarali foydalanish" nomli qisqa muddatli kursi).

An'anaviy, masofaviy va boshqa shakllarni o'z ichiga olgan malaka oshirishning uyg'unlashgan kurslarini tashkil etishda kafedrada geografiya, biologiya, kimyo, fizika, matematika va informatika fanlaridan an'anaviy malaka oshirish kurslari tashkil qilingan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha taqdimotlar, tarqatma materiallar, majmualar tayyorlangan va yil davomida yangilanib borilgan.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi uchun zamonaviy, shu jumladan, elektron formatdagi o'quv adabiyotlarini yaratishda kafedrada **3 ta elektron qo'llanma yaratilishi rejalashtirilgan, lekin 1 ta elektron qo'llanma yaratilgan** (B.Usmanovning "Elektron hisoblash mashinalari uchun dastur").

Shuningdek biologiya, kimyo va fizika fanlaridan maktab darsliklari uchun virtual laboratoriyalar yaratilgan va viloyat o'qituvchilariga elektron varianti yetkazilgan.

Pedagogik mahorat markazini yuqori malakali professor-o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2024, 2025-yillarda maqsadli doktorantura,

doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan kafedra a'zolari quyidagicha:

Kafedraning barcha o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot ishlari mavzularini olgan va shu mavzular bo'yicha ish olib borishmoqda. Kafedra mustaqil tadqiqotchisi A.Samyayev 2024-yilning 24-iyul sanasida "Quyi Zarafshon agrolandshaftlarining ekologik holati va ularni xaritlashtirish" mavzusida 11.00.01- Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha (geografiya fanlari) bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Kafedra o'qituvchisi B.Amirullayeva 2022-yilda maqsadli doktoranturaga qabul qilingan va 2025-yilning 12-aprel sanasida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi.

Shuningdek kafedra o'qituvchisi Yunusova Navbaxor Axmadjonovnaning biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusi "Tabiiy rezistentlik hujayralari differentsiatsiyasi va funksional faolligining o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlanadi. N.Yunusovanning ishi ham kafedra muhokamasidan o'tgan. Shuningdek, kafedra tadqiqotchisi S.Xalilova ham ishini yakunlash arafasida. Shu yilning may oyida dissertatsiya ishini kafedra muhokamasiga qo'yishni rejalashtirgan.

Professor-o'qituvchilarning turli innovatsion, amaliy va fundamental tadqiqotlar loyihalari tanlovlarida faol ishtiroki yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qaroriga muvofiq Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagoglarni aniqlash maqsadida ikki bosqichli tanlovda kafedraning biologiya fani o'qituvchisi D.Ibodullayeva qatnashib Vazirlik ustamasiga ega bo'lgan.

Kafedrada so'nggi bir yilda professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalarini tashkil etilmagan.

Ta'lim, mahorat darslari va tajriba almashish uchun xorijiy olimlar, o'qituvchilar, mutaxassislarni taklif etishda aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida 2024-yilda xorijiy mutaxassislari taklif etilgan. Jumladan, 2024-yilning 23-aprel kuni N.I.Lobachyov nomidagi Nijegorod davlat universiteti dotsenti, biologiya fanlar nomzodi Yuliya Sinitsina biologiya guruhi tinglovchilariga "Hujayrada osmos hodisasini kuzatish (Plazmoliz va deplazmoliz)" va "Amilazaning faolligi" mavzusida mahorat darslarini o'tkazdi.

Shuningdek, 2024-yilning 15-may kuni Samarqand xalqaro texnologiyalar universiteti professori Jimbo H.Clever (JAR) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida matematika fani o'qituvchilari guruhida mahorat darsini o'tgan.

2024-2025-yillari kafedrada SamDU professori Christo Anand (Hindiston) matematika yo'nalishi tinglovchilariga dars o'tib kelmoqda.

Xalqaro konferensiya va seminarlarni tashkil etish, qo'shma xalqaro ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda 29.02.2024 kuni kafedra professor o'qituvchilari tomonidan "Sun'iy intellektga oid va tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda

Kvest texnologiyalaridan foydalanish" mavzusida respublika miqyosida online vebinar tashkil etilgan.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashabbusi bilan 25-27 mart kunlari bo'lib o'tgan "Natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni joriy etish tendensiyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada kafedra o'qituvchilari ham faol ishtirok etdi. Kafedra v.b dotsenti A.Qudratova "PISA 2022 natijalari tahlili. Matematik savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchilarning topshiriq tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish" mavzusida ma'ruza qildi.

Joriy yilning 7-8 noyabr kunlari O'zbekiston respublikasi ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan hamkorlikda 7-8 kunlari tashkil etilgan marafonda "PISA tadqiqotlari doirasida matematik savodxonlikni rivojlantirish" mavzusida kafedra dotsenti A.Qudratova ma'ruza qildi va markazning tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida geografiya fanlari doktori, professor Ali Abdulqosimovning 90 yillik yubileyi munosabati bilan "Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada kafedra mudiri A.Samyayev mas'ulligida geografiya guruhi tinglovchilari bilan ishtirok etishdi.

Urgut tumanidagi 144-umumiy o'rta ta'lim maktabida kafedra o'qituvchilari Sh.Xayitmuradov, T. Oqnazarov va O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti professor-o'qituvchilari hamkorligida "Ta'limda sun'iy intellektga asoslangan dasturlar va bulutli texnologiyalardan foydalanish" hamda "XXI asr zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusida o'quv-amaliy seminar va mahorat darslari tashkil qilindi.

Joriy yilning 14-15-oktabr kunlari kafedra o'qituvchisi S.Xalilova Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" (Food Security: Global and national Problems)" mavzusidagi VI xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etgan.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarini ilmiy darajali kadrlar bilan ta'minlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari quyidagicha:

2024-yili kafedrada 18.0 shtat birligida, shundan 13 ta asosiy shtatda o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan, shundan ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar 6 nafarni tashkil etgan (44 %).

So'nggi yillarda kafedrada birorta ham xorijiy stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etilmagan. Kafedra o'qituvchisi A.Samyayev 1998-yil 19-oktabrdan-1999-yil 29-yanvar sanasigacha Belgiyaning LA-CAMBRE Oliy arxitektura institutida "Arxitektura va urbanizmni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro malaka oshirish kursida qatnashgan va sertifikat olgan.

Professor-o'qituvchilar tomonidan nufuzli xalqaro bazalarda (SCOPUS, Web of science va Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan bazalar) ro'yxatdan o'tgan ilmiy jumallarda chop etilgan maqolalar soni: - 1 ta Scopus bazasidagi xorijiy jumallarda (B.Usmonov), 2 ta Web of science bazasidagi xorijiy jurnalda

(Sh.Abduev, A.Qudratova), 9 ta OAK tavsiya etgan jurnallarda, 56 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqola nashr ettirgan. Shuningdek, kafedrada 2024-yilda 3 ta monografiya, 1 ta elektron qo'llanma, 1 ta o'quv qo'llanma, 8 ta uslubiy qo'llanma, 14 ta uslubiy ko'rsatma nashr etilgan. **2025-yilda kafedrada 9 ta SCOPUS bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola nashr etish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kungacha 1 ta maqola jo'natilgan.**

2024-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

Kafedra professor-o'qituvchilari masofaviy malaka oshirish kurslarida qatnashib 48 ta sertifikat olgan.

Xalq ta'limi xodimlarining salohiyatini oshirish, xalq ta'limida inson resurslarini rivojlantirishda kafedrada xodimlarning "Lifelong learning" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirishda "Ustoz-shogird" tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, SamDU professori E.Sattorov va kafedraning matematika fani o'qituvchisi X.Xaydarov, kafedra o'qituvchilaridan N.Yunusova va D.Ibodullayeva, A.Samyayev va M.Ikramovalar hamda SamDU dotsenti I.Aminov va kafedraning informatika o'qituvchilari bilan "Ustoz-shogird" tizimida ish olib borishgan.

Mahalliy va yetakchi xorijiy tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishda SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti, Kimyo fakulteti, Biologiya fakulteti, Matematika fakulteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti bilan kafedra hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha:

Xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari hamda Pedagogik markazlarning malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trener guruhlarini shakllantirishda hududlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminar-treninglar o'tkazilishi ta'minlangan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan viloyatda faoliyat olib borayotgan 9 nafar ilg'or o'qituvchilarining ish tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalar viloyat miqiyosida ommalashtirilgan.

Kafedrada mutaxassisliklar bo'yicha maktab darsliklarining quyi darajasidagi elementar ma'lumotlarni yetkazib beruvchi 7 ta telegram kanallar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Kafedrada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-241-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan belgilangan tumanlardagi «qizil» toifaga kiritilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etib kelingan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlari olib borilgan, ulug' allomalarning tug'ilgan sanalariga hamda davlatimiz ramzlariga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazilib kelingan. Kafedrada o'quv yili davomida markaz rasmiy veb-saytida 15 marotaba, OAV da 8 marotaba chiqish bo'lgan: 4 marotaba "Yoshlar olami" gazetasiga va bir marotaba Samarqand viloyat televideniya'sining "Inson qadri uchun" ko'rsatuvida kafedra o'qituvchilari intervyu berishgan.

Kafedraga tegishli barcha fanlar kesimida ilg'or xorijiy metodlarini (Kembridj metodikasi, Kvest texnologiyasi, Ta'limda sun'iy intellekt...) darslar mazmuniga singdirilib kelingan. Xorijiy metodikaga asoslangan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar nashr ettirilgan. PISA, STEAM tadqiqotlaridan dars davomida foydalanib kelingan. Lekin kafedrada ayrim professor-o'qituvchilar tomonidan shaxsiy ish rejasida belgilangan nashr ishlari belgilangan muddatlarda tayyorlanmagan. Masalan, A.Samyayev, N.Yunusova, Sh.Abduyev, T.Oqnazarovlar tomonidan fevral-mart oylarida tayyorlanishi lozim bo'lgan uslubiy ko'rsatma va nashr ishlari bajarilmagan.

Kafedra faoliyatining umumiy monitoringi:

Kafedra professor-o'qituvchilarining 2024-yilda shaxsiy ish rejalarida belgilangan vazifalari to'liq bajarilgan. Shuningdek kafedraning 2024-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan, **ammo bajarilmagan kamchiliklari mavjud:**

1. 2024-yilda 7-ta qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi rejalashtirilgan, lekin 2024-yilda bitta qisqa muddatli kurs o'tkazilgan

2. 2024-yilda kafedrada 3 ta elektron qo'llanma yaratilishi rejalashtirilgan, lekin 1 ta elektron qo'llanma yaratilgan.

3.Kafedrada o'rganish davomida professor-o'qituvchilarning qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalarini tashkil etilmagan.

4. 2025-yilda kafedrada 9 ta SCOPUS bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola nashr etish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kungacha 1 ta maqola jo'natilgan.

5. 2024-yilda kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar mavjud emas.

6. 2024-2025-yillarda kafedrada faoliyat yuritayotgan ayrim professor-o'qituvchilar tomonidan shaxsiy ish rejasidagi nashr ishlari belgilangan muddatlarda tayyorlanmagan (masalan, 2024-yil uchun rejalashtirilgan nashr ishlarining aksariyati yilning oxirida chop etilgan, 2025-yil uchun fevral oyi – Q.Sherxolov, mart oyi – S.Xalilova tomonidan haligacha chop etilmagan).

7. Kafedrada 2025-yil aprel oyigacha 4-ta ochiq dars rejalashtirilgan bo'lib, 2-ta ochiq dars o'tkazilgan (A.Samyayev, B.Amrullayeva), rejalashtirilgan 2 ta ochiq darslar sababli vaziyatga ko'ra tashkil etilmagan (D.Xabibullayev, A.Qudratova).

Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Ishchi guruhning xulosaviy ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovga:
 - kafedrada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha 1 hafta muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;
 - Markaz professor-o'qituvchilari faoliyati samaradorligini o'rganishda xolisona yondashuv hamda jarayonni samarali tashkil etishda shaffoflik ta'minlansin.
3. Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri A.Samyayevga:
 - malaka oshirish kursi tinglovchilari va pedagogika markazi professor-o'qituvchilari uchun rejalashtirilgan qisqa muddatli o'quv kurslarini samarali va o'z vaqtida tashkil etilishini yo'lga qo'yish;
 - kafedra ilmiy, kasbiy salohiyatini oshirish;
 - mahalliy va xorijiy grantlarga ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
 - kafedrada elektron nashrlar sonini ko'paytirish, fanlar kesimida nashr ishlarining sifati va samarasini oshirish;
 - SCOPUS bazasidagi hamda Web of science bazasidagi xorijiy jurnallarda maqola chop ettirish;
 - kafedra professor-o'qituvchilarining belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta'minlash;
 - shaxsiy ish rejalarning yuritilishiga jiddiy e'tibor qaratish;
 - kafedra rejasida kiritilgan barcha ish turlarini o'z vaqtida tashkil etilishini nazorat qilish;
 - bir hafta muddatda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.
4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/3.1 -son
Samarqand shahri

**“O‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlikning
innovativ modeli – “O‘qituvchi jomadoni”
konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi M. Rasulovning ““O‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – “O‘qituvchi jomadoni” konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi ma’lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi M. Rasulova so‘zga chiqdi: – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – “O‘qituvchi jomadoni” konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, pedagog va mutaxassis xodimlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratlarini uzluksiz oshirib borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish yuzasidan amaliy metodik yordam tizimini yaratish uchun ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiyasining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Markazda “O‘qituvchi jomadoni” konsepsiyasini targ‘ib etish orqali o‘qituvchilarning darsga tayyorgarlik samaradorligini oshirish, metodik mustaqilligini shakllantirish va zamonaviy resurslardan foydalana olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘qituvchilarga ularning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan amaliy va metodik predmetlarni tizimlashtirib, ularga moslashuvchan, qulay foydalaniladigan “jomadon” shaklida taqdim etish;
- ushbu “jomadon”ni maktab amaliyotiga transformatsiya qilib, har bir ta’lim muassasasida o‘qituvchilar o‘rtasida samarali metodik hamkorlik, o‘zaro tajriba almashish va professional rivojlanish madaniyatini shakllantirish;
- o‘qituvchining kundalik faoliyatida zarur bo‘lgan hujjatlar, shakllar va namunalarni tayyorlash;
- pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar to‘plamini taqdim etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mini-trening va mashqlarni ishlab chiqish;
- darsda qo‘llash mumkin bo‘lgan universal predmetlar jamlanmasini yig‘ish;
- har bir o‘qituvchiga o‘zining “jomadoni”ni shakllantirishga yordam berish;

- jomadon tarkibiga kiradigan materiallar: konspektlar, interaktiv dars ishlanmalari, vizual vositalar, baholash mezonlari, shaxsiy rivojlanish rejalari kabi resurslar bilan ishlashni o'rgatish;

- turli fanlar va bosqichlarga mos "jomadon" namunalarini ishlab chiqish;

- raqamli va bosma formatlarda foydalanish imkonini beruvchi moslashuvchan model yaratish.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchilarining o'quv jarayonlariga tayyorgarligini mustahkamlash uchun "O'qituvchi jomadoni"ni targ'ib qilish asosida quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

o'qituvchining darsga tayyorgarligida zamonaviy metodik vositalar, ishlanma andozalari, differensial yondashuvlar va fanlararo integratsiya usullaridan foydalanishini yo'lga qo'yadi. "Jomadon" orqali o'qituvchi har bir dars uchun tayyor amaliy vositalar to'plamiga ega bo'ladi. Darsga tayyorgarlik sifati oshadi, resurslardan samarali foydalanish ortadi;

har bir o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va shaxsiy kasbiy rivojlanish yo'lini belgilashga o'rganadi;

"Jomadon" faqat individual resurs emas, balki hamkasblar bilan tajriba almashish, birgalikda faoliyat yuritish uchun ham "amaliy vosita" sifatida xizmat qiladi. O'qituvchilar orasida "Jomadonlar almashinuvi", ochiq darslar, metodik ko'rgazmalar tashkil qilish jarayoni jadallashadi;

malaka oshirish kurslarida ishtirokchilar faol, ijodkor, amaliy ishga yo'naltirilgan bo'ladi;

Markazda egallangan bilim va ko'nikmalarni maktab sharoitiga moslashtirish orqali o'qituvchilar o'z maktabida "jomadon" modelini joriy qilish, boshqalarga targ'ib qilish va maktabning ichki kasbiy rivojlanish tizimiga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktablarda pedagoglarning o'zaro metodik tajriba almashinuvi kuchayadi. "O'qituvchi jomadoni" pedagogik madaniyatning bir qismi sifatida shakllanadi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi M. Rasulovning "O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi tasdiqlansin.

3. Konsepsiyada belgilangan maqsadlar asosida Markazda "O'qituvchi jomadoni" targ'ib etilsin.

4. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov va kafedra mudirlariga:

- Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

- belgilangan tartibda kafedra mudirlari o'z yo'nalishlari bo'yicha jamadon bo'limlarini shakllantirilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

Kengash raisi
Kengash kotibi



[Handwritten signature]

A.Ibragimov
D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/3.2 -son

Samarqand shahri

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini
ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.2.bandi Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida bo'lib, **Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası dotsenti G.Fayzullayevani v/b professorlikka tavsiya etish to'g'risida.**

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası v/b professori ilmiy unvoniga nomzod G.Fayzullayeva haqida ma'lumot: Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna xalq ta'limi tizimida pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish, ularni qayta tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etib, yaxshi natija va tajribaga ega bo'lgan mahoratli pedagog. Maktabda adabiy ta'lim uzviyligini ta'minlash doirasidagi izlanishlari natijasida, 2019-yilda "Adabiy ta'lim uzviyligi asosida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish (V–IX sinflar misolida)" mavzusida 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan. Ta'limdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirib 2024-yilda "O'qituvchi kasb standartini amaliyotda qo'llashning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish (P5BL yondashuvi misolida)" mavzusida pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan.

Bugungi kunga qadar iqtidorli olim va malakali pedagog sifatida o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar, shuningdek 80 dan ortiq ilmiy, uslubiy va ommabop nashrlar muallifidir. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etib kelmoqda.

G.Fayzullayeva tomonidan hammualliflikda tayyorlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o'quv dasturi" "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o'quv dasturi", "Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maktablar va maktab-internatlar tarbiyachilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o'quv dasturi" respublika bo'yicha joriy qilingan hamda ushbu dasturlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar to'plamlari ayni kunda viloyat pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida amalda foydalanilmoqda.

G.Fayzullayeva qaysi vazifada faoliyat ko'rsatmasin, doimo o'ziga yuklatilgan topshiriq hamda vazifaga yuksak mas'uliyat bilan yondashadi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini ko'rsatadi. 2022 yil "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

G.Fayzullayeva 2019-yil 1-noyabrdan hozirgi kungacha Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. G.Fayzullayevaning ilmiy va mehnat faoliyatidagi yutuqlarini inobatga olgan holda uni professor vazifasini bajaruvchi etib tasdiqlash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi Eshankulov Shaxzod Eshkuvatovichni v/b dotsentlikka tavsiya etish to'g'risida.

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini v/b professori ilmiy unvoniga nomzod Eshankulov Shaxzod Eshkuvatovich haqida ma'lumot: Eshankulov Shaxzod Eshkuvatovich maktabgacha va maktab ta'limi tizimida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari ish faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning uzluksiz malaka oshirish tizimida bevosita ishtirok etib, samarali natijalar va tajribaga ega bo'lgan. Ta'lim tizimida tarixiy izlanishlar, tarbiya yo'nalishidagi tadqiqotlar natijasida 2019-yilda "Zarafshon vohasining etnik tarkibi. Etnotoponim materiallar" mavzusida 09.00.07 – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Bugungi kunga qadar ta'lim tizimida rahbarlik bilan birgalikda pedagogik faoliyatni davom ettirib, sohaga oid konferensiyalar, maruzalalar, shuningdek 20 dan ortiq ilmiy, uslubiy va ommabop nashrlar muallifi.

Sh.Eshankulov mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qabul qilingan Qonun va Farmonlar, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ta'lim tizimi xodimlariga yetkazish, Yangi O'zbekiston yoshlarini Vatanimizga sadoqatli insonlar etib tarbiyalash, pedagoglar mahoratini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tematik mavzularda seminarlar tashkil etmoqda.

Sh.Eshankulov tomonidan tayyorlangan "Darslarda 4K ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi", "Joy nomlarining tarixiy ahamiyati", "Toponimlar klassifikatsiyasida etnotoponimlar masalasi", "Aholi soni o'zgarishining etnik jarayonlarga ta'siri" mavzularidagi o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar to'plamlari o'quv jarayoniga samarali tatbiq etilib, amaliyotda keng foydalanib kelinmoqda.

Sh.Eshankulov qaysi vazifada ishlamasin, doimo o'ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarga o'ta mas'uliyat bilan yondashadi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik qobiliyatini ko'rsatadi.

Eshankulov Shaxzod Eshkuvatovich 2022-yil 24-29-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand filialida 60 soatlik o'quv kursi, 2024-yil 12-17-fevral kunlari O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat institutida "Menejment" yo'nalishida malaka oshirish kursi, 2024-yil 24-27-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasida Milliy kadrlar zaxirasiga nomzodlar uchun 56 soatlik o'quv kursi, 2024-yil 7-8-iyun kunlari Singapur ta'limi tizimida "Marshall Cavendish Education" o'quv kursi, 2024-yil 11-13-iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi Samarqand filialida Milliy kadrlar zaxirasiga nomzodlar uchun 20 soatlik o'quv kursi, 2024-yil 24-oktabrda Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy-huquqiy axborot markazining "Ta'lim huquqi" o'quv kurslarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, sertifikatlariga ega bo'lgan.

Sh.Eshankulov ayni paytda Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari sifatida boshqaruv yo'nalishi, ilmiy-pedagogik yo'nalish hamda ijtimoiy hayotda rahbarlik va ishchanlik xislatlari, yoshlarga ibrat bo'ladigan yuksak insoniy fazilatlarini namoyon etib, zamonaviy rahbar sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

SO'ZGA CHIQDI: D.Alimova – G.Fayzullayeva va Sh.Eshankulovlar, bugungi kunda Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazida tinglovchilarga dars berish, tumanlarda mahorat darslari, seminarlarni tashkil etish bilan bir qatorda, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini o'z ustida ishlatish mexanizmini yaratish yo'nalishlarida keng qamrovli faoliyat olib borishmoqda. Ta'lim tizimidagi ushbu ilmiy-amaliy faoliyatini hisobga olgan holda G.Fayzullayeva va Sh.Eshankulovlarni ilmiy unvonga tavsiya etish haqli deb o'ylayman.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

QAROR QILADI:

1. Markaz direktori A.Ibragimovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. **"Professor ilmiy unvoniga v.b. sifatida tavsiya etish to'g'risida":**

2.1. Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası dots., p.f.d. G.Fayzullayevani professor ilmiy unvoniga v.b. sifatida tavsiya etish to'g'risida"gi ma'lumot ijro uchun qabul qilinsin.

2.2. Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası dots., p.f.d. G.Fayzullayevaning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan professor ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan barcha talablar bajarilganda professor diplomini olish uchun talabgor hujjatlari yig'ma jildi OAKga taqdim etilsin.

3. **"Dotsent ilmiy unvoniga v.b. sifatida tavsiya etish to'g'risida":**

3.1. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sh.Eshonkulovni dotsent ilmiy unvoniga v.b. sifatida tavsiya etish to'g'risida"gi ma'lumot ijro uchun qabul qilinsin.

3.2. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sh.Eshonkulovning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan barcha talablar bajarilganda dotsent diplomini olish uchun talabgor hujjatlari yig'ma jildi OAKga taqdim etilsin.

4. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish Kengash kotibi D.Yunusova va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosi Pedagogik markaz akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/3.3 -son
Samarqand shahri

**Pedagogik markaz o'qituvchilarini
katta o'qituvchilik lavozimiga
tanlovga qadar o'tkazish haqida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Pedagogik markaz o'qituvchilarini katta o'qituvchilik lavozimiga tanlovga qadar o'tkazish haqida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Sizlarga ma'lumki, markazimizda tanlovga qadar katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun Ilmiy kengash kotibiga hujjatlar taqdim etiladi. Bu tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs, shuningdek ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar qatnashishi mumkinligi e'tiborga olingan holda holda quyidagi hujjat ishlari: kafedra yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma, talabgor to'g'risidagi obyektiv ma'lumotnoma, markaz faoliyatini rivojlantirishga doir shaxsiy tashabbus kiritganligi va amalga oshirganligi, ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlarning talabgor va ilmiy-metodik kengash kotibi tomonidan tasdiqlangan ro'yxati, ilmiy ishlari nusxalari (xorijiy jurnallarda kamida 1 ta maqola, OAK tasarrufidagi jurnallarda kamida 2 ta maqola), ilmiy-uslubiy ishlar nusxalari, patentlar yoki dasturiy ta'minotga mualliflikni tasdiqlovchi guvohnomalar, tayyorlangan o'quv dasturlari asosida qisqa muddatli (bepul) kurslar tashkil qilinganligi (dastur, o'tkazilganligi haqida ma'lumot), kasbiy yoki ilmiy faoliyatga doir tanlovlarda g'oliblik (g'oliblarni tayyorlaganligi)ni tasdiqlovchi hujjatlar, o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar haqida tasdiqlangan ma'lumot, ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tasdiqlovchi hujjatlar qabul qilib olindi.

Kengash a'zolari fikr mulohazalari asosida talabga javob beradigan markaz professor-o'qituvchilari katta o'qituvchilikka tavsiya qilindi.

Ekspert guruhi fikr mulohazalari asosida talabga javob beradigan markaz professor-o'qituvchilari katta o'qituvchilikka tavsiya qilindi.

(Illova)

Katta o'qituvchi lavozimiga tavsiya etilgan professor-o'qituvchilar

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası	
1.	Amrullayeva Barno Abdulhaqovna
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası	
2.	Mansurov Farrux Najmitdinovich

SO'ZGA CHIQDI: M.Raximqulova – yuqorida katta o'qituvchilikka tavsiya etilayotgan professor-o'qituvchilarimiz haqiqatdan ham bugungi kunda markazimizda mahoratli darslarni ko'rsatish bilan bir qatorda, o'ta dolzarb muammo bo'lgan o'qituvchilarning o'z ustida ishlatish mexanizmini yaratish yo'nalishlarida

keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boryaptilar. Ushbu professor-o'qituvchilarimizning ta'lim tizimidagi ilmiy-amaliy faoliyatini hisobga olgan holda markaz katta o'qituvchilik lavozimini olishga haqli deb o'ylayman.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Markaz direktori A.Ibragimovning "Pedagogik markaz o'qituvchilarini katta o'qituvchilik lavozimiga tanlovga qadar o'tkazish haqida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası o'qituvchisi Amrullayeva Barno Abdulhaqovna va Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi Mansurov Farrux Najmitdinovichlar tanlov e'lon qilingunga qadar katta o'qituvchi lavozimiga o'tkazilsin.

3. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish Kengash kotibi D.Yunusova va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamga qoldiraman.

**Kengash raisi
Kengash kotibi**



**A.Ibragimov
D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/3.4 -son

Samarqand shahri

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2006-yil 10-fevraldagi "“Oliy ta'lim muassasalariga
pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul
qilish tartibi to'g'risida”gi nizomni tasdiqlash
haqida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2024-yil 6-sentabrdagi “Maktabgacha va maktab
ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy
rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta'lim
muassasalariga ma'muriy-boshqaruv va pedagog
xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi
to'g'risida”gi 297-sonli hamda 2025-yil 5-fevraldagi
37-sonli buyruqlariga asosan “Tanlovga binoan
lavozimlarga saylash” to'g'risida**

Kengash kotibi D.Yunusovning “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi ““Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida”gi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalariga ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida”gi 297-sonli hamda 2025-yil 5-fevraldagi 37-sonli buyruqlariga asosan “Tanlovga binoan lavozimlarga saylash” to'g'risida”gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalariga ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida”gi 297-sonli hamda 2025-yil 5-fevraldagi 37-sonli buyruqqa ko'ra tanlov komissiyasining bayonnomasi hamda tanlov komissiyasiga kelib tushgan nomzodlarning hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi ““Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida”gi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, talablariga mos keladi. Tanlov komissiyasi tavsiya qilgan nomzodlar (A.Samyayev (13/13) - Aniq va tabiiy fanlar metodikasi, M.Raximova (13 /13) - Tillarni o'qitish

metodikasi kafedrası mudiri lavozimiga) yashirin ovoz bergan holda Kengash a'zolari tomonidan bir ovozdan tasdiqlandi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kengash kotibi D.Yunusovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tanlovga binoan Ilmiy lavozimlarga saylash bo'yicha quyidagi tarkibda sanoq komissiyasi saylansin:
 - B.Usmonov (rais);
 - M.Raximqulova (a'zo);
 - G.Tagayev (a'zo);
3. Tanlovga binoan Ilmiy unvon va lavozimlarga saylash bo'yicha tuzilgan sanoq komissiyasining 2025-yil 6-maydagi bayonnomasi tasdiqlansin.
4. Yopiq yashirin ovoz berish natijalariga muvofiq:
 - A.Samyayev (13/13) - Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası mudiri lavozimiga tavsiya etilsin;
 - M.Raximova (13 /13) - Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri lavozimiga tavsiya etilsin;
5. Ilmiy kengashning mazkur qarorini xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarini mehnat qonunchiligi asosida rasmiylashtirish Markaz inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.
6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
6-mayda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 6-may

2/3.5-son

Samarqand shahri

**Pedagogik markaz professor-
o'qituvchilarining dissertatsiya
mavzulari, ilmiy rahbarlarini
tasdiqlash to'g'risida**

Kengash kotibi D.Yunusovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarining dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Kengashga pedagogik markaz professor-o'qituvchilarining dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to'g'risida hujjat kelib tushgan.

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi Haqberdiyeva Zamira Rajabboyevnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda 5E modeli asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" nomli 13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusini va ilmiy rahbar etib Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida mudiri, dotsent Raximqulova Maxbuba Baxranovnani tasdiqlash haqida so'ralgan.

Kengash raisi A.Ibragimov – ushbu masala bo'yicha fikrlar, savollar bo'lsa marhamat.

